

ISSN: 2181-1040
DOI: 10.26739/2181-1040
tadqiqot.uz/renaissance



JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL
ASIAN RENAISSANCE**



**VOLUME 6 |
ISSUE 1**

2025

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 1

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
ТОМ 6, НОМЕР 1

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE
VOLUME 6, ISSUE 1



Бош муҳаррир:

МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:

ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент Мирзо
Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:

ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,
профессор (Ўзбекистон)

ҲАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадиий
академияси академиги, санъатшунослик фанлари
доктори, профессор (Ўзбекистон)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ISFT professori, siyosiy fanlar doktori (O'zbekiston)

ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси илмий
ва инновация ишлари бўйича проректори,
филология фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

КЛЭР РООСИЕН

Йел университети Славян тиллари ва адабиётлари
кафедраси PhD доктори (АҚШ)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги CEU университети
профессори (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги
Ўзбекистон Миллий университети
халқаро ишлар бўйича проректори,
филология фанлари доктори,
профессор (Ўзбекистон)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,
тарих фанлари доктори (АҚШ)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Анджон давлат университети “Фалсафа” кафедраси
муdiri, фалсафа фанлари доктори, профессор. (Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган муҳандислик-технология институти профессор,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навоий давлат педагогика институти
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

ИНАКОВ КОМИЛЖОН ҚОДИРЖОНОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий
университети доценти, педагогика фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доц.в.б., фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети доценти, социология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

РЎЗИБОЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн-саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF WWW.TADQIQOT.UZ

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Главный редактор:

МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА

доктор философских наук, профессор

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Заместитель главного редактора:

ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА

доктор философии (PhD), по философским наукам, доцент
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Заместитель главного редактора:

ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

доктор философских наук (PhD), Национальный
университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ректор Национального университета Узбекистана,
профессор (Узбекистан)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Академия наук Узбекистана,
академик Академии художеств Узбекистана,
доктор искусствоведения, профессор (Узбекистан)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

профессор Центра Евразийских исследований
Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ

Профессор ISFT института,
доктор политических наук (Узбекистан)

ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ

проректор по научным исследованиям и инновациям
Международной исламской академии Узбекистана,
доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

КЛЭР РООСИЕН

PhD доктор кафедры
Славянских языков и литературы
Йельского университета (США)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

профессор Университета
CEU имени Сан Пабло (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА

проректор по международным связям
Национального Университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор филологических наук,
профессор (Узбекистан)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

профессор Университета Хофстра,
доктор исторических наук (США)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

профессор кафедры религиоведения и культурологии
Казахского Национального Университета имени Аль-Фараби,
доктор философских наук (Казахстан)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА

заведующая кафедрой «Философия» Андижанского
государственного университета, кандидат
философских наук, профессор. (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

профессор Наманганского инженерно-технологического
института, доктор философских наук (Узбекистан)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навоийского государственного педагогического института,
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)

ИНАКОВ КАМИЛЖОН КАДЫРЖАНОВИЧ

доцент Национального Университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор философии (PhD)
по педагогическим наукам (Узбекистан)

ДЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

и.о. доцент Национального Университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор философии
по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

доцент Наманганского государственного университета, доктора
философии (PhD) по социологическим наукам (Узбекистан)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо
Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD)
(Узбекистан)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

докторант кафедры Философии и логики Национального
Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF WWW.TADQIQOT.UZ

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Chief Editor:

MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor
The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Deputy Chief Editor:

YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Doctor of Philosophy (PhD), in Philosophical Sciences,
Docent of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Deputy Chief Editor:

KHODZHIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Doctor of Philosophy (PhD), National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan,
Academician of the Academy of
Arts of Uzbekistan, Doctor of
Art History, Professor (Uzbekistan)

MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies
at Indiana University, Doctor of History (USA)

DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute,
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan).

ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

Vice-Rector for Research and Innovation of the
International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

CLAIRE ROOSIEN

Department of Slavic Languages and Literature
of the Yale University, PhD (USA)

ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU
named after San Pablo (Spain)

SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University,
Doctor of Historical Sciences (USA)

GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

the head of the "Philosophy" department of Andijan
State University, DCs, professor. (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan Institute of Engineering
and Technology, Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

the Nava'i State Pedagogical Institute, Doctor
of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

INAKOV KOMILJON KODIRJONOVICH

Associate Professor of the National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philosophy (PhD) (Uzbekistan)

JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Associate Professor of the National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Associate Professor of Namangan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) on
Sociological Sciences (Uzbekistan)

SHUKUROV AKMAL SHAROFVICH

The National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

RO'ZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD O'G'LI

doctoral student of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Khurshid Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF WWW.TADQIQOT.UZ

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Akmal Jumanazarov, Noibaxon Mamadalieva AMIR TEMUR HARBIY SAN'ATIDA O'LCHASHLARNING QO'LLANILISHI.....	7
2. Fayzixodjayeva Dilbar Irgashevna SOHIBQIRON AMIR TEMUR QARORLARINING MANTIQIY ASOSLANISHI.....	15
3. Karimov Elyor Erikovich, Madayeva Shahnoza Amanullaevna POSTJADIDCHILIK DAVRIDA O'ZBEK IDENTIKLIGINING SHAKLLANISHI.....	21
4. Nilufar Tuychiyeva Maxsutjanovna TASAVVUF ILMI RIVOJIDA ABU NASR SARROJNING O'RNI.....	30
5. Джураева Нигора Авазовна СИСТЕМНЫЙ АНАЛИЗ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПАРАДИГМЫ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА И КАЗАХСТАНА.....	40
6. Yusupova Dildora Dilshatovna YAQIN SHARQ MAMLAKATLARIDA ISLOMNING SIYOSIYLASHUVI VA UNING O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIGA TA'SIRI.....	49
7. Madayeva Mu'tabarxon Amanullayevna "SAB'AI SAYYOR" DOSTONIDA ARABCHA SO'ZLAR VA BADIY SAN'ATLARNING UYG'UNLIGI.....	55
8. Xojiev Tunis Nurkosimovich YANGI MODERNIZATSIYA KONSEPSIYALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI...	61
9. Jo'rayev Anvar Muhammadiyevich IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI.....	69
10. Bultakov Begzod Abdurasulovich INTERNETDA MILLIY KONTENTNING OMMALASHUVI: O'ZBEK MADANIYATI VA TILINING RAQAMLI MAKONDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	79
11. Norboyev Javlon Akbarali o'g'li IBN AL-ARABIYNING VAHDAT UL-VUJUD TA'LIMOTIDAGI PANTEISTIK QARASHLAR VA KLASSIK PANTEIZM.....	86


МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

ISSN: 2181-1040
www.tadqiqot.uz

Yusupova Dildora Dilshatovna

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti dotsenti
falsafa fanlari boʻyicha (PhD), dotsent
Email: yu.dildora@list.ru

**YAQIN SHARQ MAMLAKATLARIDA ISLOMNING SIYOSIYLASHUVI VA UNING
OʻZBEKISTON TARAQQIYOTIGA TAʼSIRI**

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15126813>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Islomning siyosiylashuvi tarixi, Yaqin Sharqdagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammolar, XIX-asrning oxirlari va XX-asrning boshlarida “islomizm” mafkurasining paydo boʻlishi va uning keng tarqalishi oqibatida diniy siyosiy kuchga aylantirilishiga sabab, islomizmning zamonaviy shakllari tarix falsafasi nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy islomizm, dinning siyosiylashuvi jarayoni, ayniqsa, moʻtadillik va radikalizm orasidagi muvozanatni saqlash masalasi yoritilgan.

Maqolada muallif, islomizmning turli bosqichlari, jumladan, panislamizm, milliy mustaqillik harakatlari va zamonaviy globallashtirish davrida islomni siyosiylashtirishga oid jarayonlarni tahlil qiladi. Shuningdek, islomizm va islomning farqi, siyosat va din oʻrtasidagi oʻzaro taʼsirlarni qiyoslaydi hamda islomizm diniy qadriyatlardan uzoqlashib, siyosiy harakatga aylangani, bu esa ekstremizm va terrorizmning kuchayishiga olib kelganiga eʼtibor qaratadi.

Kalit soʻzlar: islom, siyosat, din, mafkura, islomizm, Islomning siyosiylashuvi, Yaqin Sharq, Gʻarb.

Юсупова Дилдора Дильшатовна
Доцент Национального университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
кандидат философских наук (PhD), доцент
Email: yu.dildora@list.ru

**ПОЛИТИЗАЦИЯ ИСЛАМА В СТРАНАХ БЛИЖНЕГО ВОСТОКА И
ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ УЗБЕКИСТАНА**

АННОТАЦИЯ

В данной статье с точки зрения философии истории анализируется история политизации ислама, социальные, политические и экономические проблемы на Ближнем Востоке, причины превращения религии в политическую силу в результате возникновения и широкого распространения идеологии “исламизма” в конце XIX и начале XX веков, а также современные формы исламизма. Кроме того, рассматривается современный исламизм, процесс политизации религии, особое внимание уделяется вопросу сохранения баланса между умеренностью и радикализмом.

В статье автор анализирует различные этапы исламизма, включая панисламизм, движения за национальную независимость и процессы политизации ислама в современную эпоху глобализации. Также он сопоставляет различия между исламизмом и исламом, рассматривает взаимодействие между политикой и религией, и акцентирует внимание на том, что исламизм отделился от религиозных ценностей и превратился в политическое движение, что привело к усилению экстремизма и терроризма.

Ключевые слова: ислам, политика, религия, идеология, исламизм, политизация ислама, Ближний Восток, Запад.

Yusupova Dildora Dilshatovna

Associate Professor at the National University Uzbekistan of
named after Mirzo Ulugbek
Doctor of Philosophy (PhD)
Email: yu.dildora@list.ru

POLITICIZATION OF ISLAM IN THE MIDDLE EAST AND ITS IMPACT ON THE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article analyzes from the point of view of the philosophy of history the history of the politicization of Islam, social, political and economic problems in the Middle East, the reasons for the transformation of religion into a political force as a result of the emergence and widespread dissemination of the ideology of “Islamism” in the late 19th and early 20th centuries, as well as modern forms of Islamism. In addition, modern Islamism and the process of politicization of religion are considered, with special attention paid to the issue of maintaining a balance between moderation and radicalism.

In the article, the author analyzes the various stages of Islamism, including pan-Islamism, movements for national independence and the processes of politicization of Islam in the modern era of globalization. He also compares the differences between Islamism and Islam, examines the interaction between politics and religion, and emphasizes that Islamism has moved away from religious values and has become a political movement, which has led to the rise of extremism and terrorism.

Key words: Islam, politics, religion, ideology, Islamism, politicization of Islam, Middle East, West.

Kirish. XX-asrning soʻngiga kelib Yaqin Sharq mamlakatlari hayotida ekstremizm va terrorizm bilan bogʻliq muammolar tobora avj olib bordi. Ayniqsa, islomning siyosiylashuvi bu oʻlkalarda diniy aqidaqparastlik gʻoyalariga yoʻgʻrilgan eng yirik ekstremistik va terroristik guruhlarining paydo boʻlishiga zamin yaratib berdi. Islomning siyosiylashuvi bir vaqtning oʻzida, “islomizm” mafkurasida mujassamlashdi.

XIX-asr oxiri XX-asr boshlarida Yaqin Sharq mamlakatlarida paydo boʻlgan mafkuraviy taʼlimotlardan biri boʻlgan “islomizm” bugungi kunga kelib yangicha qiyofada dinning siyosiylashuviga sabab boʻlganligi, uning diniy-siyosiy ruhdagi guruhlar tomonidan qurol sifatida qoʻllanilishi, “islom” va “islomizm”ning bir-biridan farqli jihatlari, “islomizm”ning qay maqsadga yoʻnaltirilganligi, undan oʻtgan asrda va bugungi kunda foydalanshning asl maqsadi va sabablarini diniy-falsafiy jihatdan tahlil bugungi kunning dolzarb mavzusi hisoblanadi.

Mavzuni oʻrganilganlik darajasi. Ushbu mavzuni oʻrganishda A.Xalid, T.Morina, Yu.Grigoreva, D.Uzlaner, N.Nazirov, A.Malashenko, V.Oleynik, S.Bekbosinova, A.Ignatenko, E.Baydarov, B.Aktaulova, S.Sapanova, M.Murtazin, Xasan Djabbari Nasir, A.Petruxina kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlariga murojaat qilingan. Shuningdek, mavzuni yoritishda mantiqiylik, tarixiylik, tizimlilik kabi usullardan foydalanilgan.

Asosiy qism. XIX-asr oxiridan boshlab XX-asr davomida siyosiy islom yoki islomiylik deb nom olgan jarayon va G'arb mustamlakachiligiga bo'lgan reaksiyalardan biriga aylandi, lekin Birinchi jahon urushi boshlanganidan beri u millatchilik va sosializm soyasida qoldi [1, – C. 95].

Darhaqiqat, Birinchi jahon urushi va uning oqibatlari, dunyodagi siyosiy va ijtimoiy tuzumlarning o'zgarishiga olib keldi. Millatchilik va sosializm, ayniqsa ishchilar va dehqonlar uchun birlashgan ishchanlik va adolat, chegaralar va millatlar bo'yicha ixtiloflar va yo'nalishlar yaratdi. Turli mamlakatlarda bu tushunchalar o'z ixtiloflarini paydo qildi: masalan, Turkiyada mustaqillikka intilish uchun milliy xususan turk millatchilik hissini kuchaytirish bo'yicha harakatlar boshlandi, shunga ko'ra Islomiylik ko'proq milliy va sosializm g'oyalari bilan chambarchas bog'landi.

G'arbnining mustamlakachiligiga qarshi va uning g'oyalariga nisbatan reaksiya sifatida siyosiy Islom yoki Islomiylik paydo bo'ldi. Biroq, XX-asrning o'rtalariga kelib, bu harakatlar sosializm, milliy mustaqillik, va umumiy ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan bog'landi. Turli musulmon mamlakatlarida ko'proq ichki iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga e'tibor qaratish boshlandi.

Shu bilan birga, bu jarayonlar turli mamlakatlarda (misol uchun, Misr, Turkiya, Eron) har xil shaklda rivojlangan va har bir o'lkada ichki siyosiy va ijtimoiy shart-sharoitlarga bog'liq bo'lgan. Islomiylik asosidagi siyosiy harakatlar, bir jihatdan, milliy mustaqillikka intilish, ikkinchi jihatdan, sosialistik g'oyalar bilan uyg'unlashish yo'liga kirdi.

Eron Prezidenti (1979-1989 yillarda), 1979-yilgi Eron islom inqilobi rahbari Imom Xomeynining fikricha: "Islom - hokimiyatga egalik qiluvchi siyosiy dindir. Islomda diniy ko'rsatmalar kabi, siyosiy ko'rsatmalar ham mavjuddir" [2, – C. 51].

Darhaqiqat, islom siyosiy kuchga ega din sifatida so'z borganda, avvalo Eron inqilobini eslab o'tish joiz hisoblanadi. Chunki, aynan islomizm o'zida siyosiy omilni mujassam etganligini Eron inqilobida bo'lib o'tgan hamda islom davlatiga aylanishidagi jarayonlar misol bo'la oladi. Ayniqsa, Xomeynning "G'arb emas, Sharq emas, balki Islom" [3, – C. 118] - degan asosiy shiorlaridan biri islom orqali mamlakat ozod bo'lishi va har qanday tahdidlarga javob bera olishi mumkin deb hisoblagan. Shuningdek, Xomeyni: "Islom - bu siyosat va faqat siyosat. Qolgan barchasi - ikkinchi darajali" [4, – C. 25] – degan holda, jamiyatning barcha jabhalarini islomiy mafkura orqali siyosatga bo'ysundirishga harakat qilgan. Natijada, islom jamiyatdagi boshqa barcha siyosiy va ijtimoiy tizimlarga shunday birlashib ketganki, u alohida qudratli kuch sifatida siyosat bilan mustahkam bog'lanib qolgan. Bu holatda, siyosat islomning faoliyat doirasini cheklab, uning o'zini ham siyosiy kuchga aylantirgan. Eron islohotchilik harakatining vakili bo'lgan Xomeynning yuqoridagi fikrlari Yaqin Sharq mamlakatidagi shialar hayotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmagan.

XIX-asr oxiri XX-asr boshlarida Yaqin Sharq mamlakatlarida paydo bo'lgan mafkuraviy ta'limotlarning bugungi kunda ham diniy-siyosiy ruhdagi guruhlar tomonidan qo'llanilishi ushbu hududlarda beqarorliklarni kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois, tarixiy ildizlar asosida etib kelgan, bugungi kunda zamonaviy qiyofa kasb etayotgan ideologik ta'limotlar avvalgi tahdidlar ko'lamidan kengroq va xavfliroq vaziyatlarni keltirib chiqarayotganligini o'tgan asr falsafasini anglash orqali ilmiy dalillar asosida ochib berish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, zamonaviy dunyoda dinning tobora kuchayib borishi, mamlakatlar rivojlanishida eng qiyin jarayonlarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, islom dinidan siyosiy maqsadlar yo'lida niqob sifatida foydalanish sof islom va radikal islom o'rtasidagi ziddiyatlarni paydo qilib bormoqda. Islomning siyosiylashuvi jarayoni davlatlarning rivojlanishiga tahdid solayotgan omillardan ekanligi esa, ushbu mavzuni o'rganish naqadar muhim ekanligini ko'rsatmoqa.

XX-asr boshlarida Yaqin Sharq mamlakatlarida zamonaviy davrning muammolarini hal etish yo'llarini faqat islomga murojaat qilish orqaligina echish mumkin deb, ba'zi reaksiya ruhdagi shaxslar tomonidan diniy ruhdagi siyosiy partiyalar tashkil etila boshlagan edi. Natijada, Yaqin Sharq mamlakatlarida islom siyosiy tus ola boshladi.

Islomning siyosiylashuvi haqida fikr bildirishdan avval, "islom" va "islomizm" tushunchalarini ajratib olish muhim ahamiyat kasb etadi. Islomning siyosiylashuvi "islomizm" jarayonida ko'rinadi. Islomda siyosiy omil mavjud bo'lsa-da, biroq uni qay yo'singa yo'naltirilganligi uni ijobiy yoki salbiy hodisaga aylanishiga olib keladi.

Aleksey Malashenkoning fikricha: “Islomizm – ham siyosiy harakat, ham ommaviy ongning tarkibiy qismi, ham mafkuradir” [5].

Rossiyalik arabshunos tarixchi va islomshunos R.G.Landa islomizmni XIX-asr panislamizmi va XX-asrning birinchi yarmidagi millatchilikdan keyingi islom dunyosi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotining muayyan bosqichi deb belgilaydi [6, – C. 148].

“Islomizm” tushunchasi ijtimoiy va siyosiy xarakter kasb etadi. Rossiyalik siyosatshunos olim Bekbosinova Sandugash Sansizbaevning fikricha, islomizmga aniq ta'rif berish qiyin, faqat bu hodisani tasvirlash mumkin. Islomizm quyidagi xususiyatlarga ega hisoblanadi:

Birinchidan, islomizm asl islomiy qadriyatlarni tiklashni talab qiladi;

Ikkinchidan, u dunyoviy va diniy tamoyillarning birligiga qat'iy e'tiborni qaratishni nazarda tutsa-da, biroq dunyoviylikka hech qanday ishora ham qilmaydi;

Uchinchidan, o'z tarafdorlari nuqtai nazaridan, jamiyat tuzilishining, ya'ni davlatning shariat qonunlariga asoslangan ideal variantini taklif qiladi;

To'rtinchidan, islomizm turli fobiyalarga, boshqa noislomiy qadriyatlardan foydalanishni cheklashga va ularni rad etishga asosiy e'tibor qaratiladi [7, – C. 19].

Muallifning fikridan kelib chiqqan holda, islomizm islomning yo'q bo'lib ketgan qadriyatlarini tiklashga harakat qiladi. Biroq, ana shu niqob ostida boshqa dinlarga toqatsizlikni ham targ'ib qiladi. Darhaqiqat, “islomizm”ning birinchi xususiyatida uning islomiylashtirish, musulmonlarni birlashtirish g'oyasi birlamchi harakat bo'lib ko'rinadi. Biroq, keyingi xususiyatlarida sekulyar davlatlarning sakral davlatga aylantirish lozimligi, dunyoviy davlatni tan olmaslik, hatto g'ayridinlarni huquqlarini cheklash kerakligini ilgari surilishi namoyon bo'ladi.

Olima Bekbosinova Sandugashning fikricha “islomizm” salbiy tushuncha hisoblanadi va u barcha din vakillariga nisbatan toqatsizlikni, dunyoviy davlatlarning boshqaruv tizimiga shubhani, shuningdek, din niqobi ostidagi ekstremistik guruhlarining paydo bo'lishiga zamin yaratib beradi. Darhaqiqat, Bekbosinova Sandugash ta'kidlaganidek, “islomizm” tushunchasini birgina fikr bilan izohlash mushkul hisoblanadi.

Amerikalik olim Adib Xalidning fikricha esa, “islomizm – islomni ob'ektivlashtirishni nazarda tutadigan ma'noda zamonaviy hodisadir: faqat o'zini odat, an'ana va tarixdan ajratish orqaligina islom o'z-o'zini ta'minlaydigan ob'ektga aylanishi mumkin, bu esa o'z navbatida siyosiy amaliyotda qo'llanilishi mumkin. Natijada islom siyosiy mafkuraga aylandi, unda barcha siyosiy maqsad va harakatlar islomning “sahih” yozma manbalarida mavjud bo'lgan ma'lum mavhum tushunchalardan kelib chiqadi” [8, – C. 26-27].

Rus olimi A.A.Ignatenko fikricha esa, “islomizm” tushunchasi “islom radikalizmi” tushunchasini ifodalaydi va bu tushunchalarni o'zaro yonma-yon holda ifodalaydi [9, – C. 27-33].

Davlat siyosati va ijtimoiy hayotning turli sohalarida islomning ta'sirini kuchaytirish jarayoni, shuningdek muayyan mintaqa yoki mamlakatda islomga e'tiqod qiluvchilar sonini ko'paytirish jarayoni umuminsoniy ilmiy hamjamiyatda islomlashtirish nomini oldi.

Qozog'istonlik olim Erkin Baydarov islomizm tushunchasiga to'xtalganda: “Islom dinining davlat siyosati va ijtimoiy hayotning turli sohalarida ta'sirini kuchaytirish jarayoni, shuningdek, muayyan mintaqa yoki mamlakatda islom diniga e'tiqod qiluvchilar sonining ko'payishi jarayoni ijtimoiy-gumanitar ilmiy hamjamiyatda islomlashtirish nomini olgan” [10, – C. 73] – deb hisoblaydi.

Yuqoridagi keltirilgan fikrdan kelib chiqib aytish kerakki, “islomizm” tushunchasini ushbu sohada tadqiqot olib borgan olimlar turlicha ifodalaydilar. Ba'zilarida “islomizm” tushunchasi ijobiy ma'no kasb etsa, ba'zilarini fikricha u salbiy tushuncha hisoblanadi. Bizning fikrimizcha esa, “islomizm” o'tgan asrda butun dunyo musulmonlarini yagona maqsad yo'lida birlashtirgan mafkura sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa, aksincha bugungi kunda esa, “Islomizm” islom dinini niqob qilgan holda undan turli maqsadlarda, foydalanish omilidir. Umuman olganda, bizning fikrimizcha bugun “islomizm” – islom dinini siyosiylashuvini paydo qiluvchi sof islomiy qadriyatlarga putur etkazuvchi radikal siyosiy harakatga aylangan.

Dinni siyosiylashishi masalasi xususida gap ketganda, bu borada ham olimlarning fikrlari ikkiga bo'linadi. Ayniqsa, islom dinini siyosiylashishi masalasida. Ayrim olimlar islom siyosiylashgan din desa, ba'zilar islom siyosiylashmagan, aksincha siyosat islomlashmoqda deydi.

Islom dinining siyosiylashuvi masalasiga oydinlik kiritish uchun, siyosat va din o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar haqida to'xtalib o'tish lozim. Keling, ular orasidagi farqlarni aniqlash uchun "siyosiylashtirish" so'zining ma'nosiga to'xtalib o'taylik.

Siyosiylashtirish – yunoncha “politika” - boshqaruv san'ati degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, u quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

1. Ayrim ijtimoiy guruhlar va shaxslarning siyosatdagi ishtirokiga qiziqishning ortishi.
2. Boshqa barcha sohalarga nisbatan davlatning ahamiyatini kuchaytirish.
3. Siyosatning kuchli ta'siri shaxslar va guruhlarining ongi, xulq-atvori hamda ularning hayot faoliyatlaridagi barcha sohalarda o'zgarishlarga sabab bo'lishi [11].

Siyosatshunoslar siyosat va din o'rtasidagi o'zaro ta'sirning to'rtta asosiy omilini aniqlaydilar:

1. Siyosat ham, din ham mafkuraviy tizimdir.
2. Ularning umumiy ta'sir ob'ekti - omma.
3. Din arboblari siyosatchilar orqali o'z manfaatlarini ifodalaydi, siyosiy arboblar esa o'z faoliyatini amalga oshirish uchun diniy me'yorlar, dogma va tashkilotlarga murojaat qiladilar.
4. Dindagi o'zgarishlar, masalan, yangi diniy tashkilotlar va oqimlarning paydo bo'lishi siyosatda o'zgarishlarga olib kelishi mumkin [12, – C. 4].

Bugun modernizatsiya va globallashtirish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan, ba'zi mamlakatlarning boshqaruv tizimida o'zgarishlarni paydo qilayotgan hamda ijtimoiy-siyosiy muammolarning keskinlashuviga sabab bo'layotgan omillardan biri din va siyosat o'rtasidagi muvozanatning buzilishidir. Avvalgi hukmron mafkuralar o'rnini “islomizm” kabi mafkuralarning egallashi o'z navbatida dinning siyosiylashuviga hamda sakral davlat ko'rinishidagi shiorlar bilan niqoblangan guruhlarining ko'payib borishiga olib kelmoqda. Xususan, o'tgan asrda ba'zi mustamlaka mamlakatlar hayotidan uzib qo'yilgan din omilining qaytadan tiklanishi, ya'ni dunyoviy rasionnalizm o'rnini vaqti kelib diniy irrashionalizm egallashga urinishi dinning siyosiylashuvini paydo qilmoqda.

“Siyosiy islom” atamasi yoki uning ekvivalenti bo'lgan “islomizm” tushunchasi 1979 yilgi Eron inqilobidan keyin keng tarqaldi va zamonaviy siyosiy nutqning eng faol tarkibiy qismlaridan biriga aylandi [13, – C. 191-192].

“Islomizm” xususida, rus olimi Aleksey Malashenko ham “Islomning muqobili va islom loyihasi” [5] nomli asarida mo'tadil islomdan to'radikallashtirilgan islomgacha bo'lgan jarayonlarni tahlil qilib berar ekan, u islomizmni – ham siyosiy harakat, ham ommaviy ongning tarkibiy qismi, ham mafkura deya ta'kidlaydi. Demak, islomizm konsepsiyasi o'z ichiga uchta tarkibiy qismni qamrab oladi. Bular: siyosiy harakat, diniy harakat va mafkuraviy harakatlardir.

XIX-asrgacha islom jamiyatlarida keng tarqalgan an'anaviy islom siyosiy hayotni emas, birinchi navbatda kundalik hayotni tartibga solgan. Islomning siyosiylashuviga turli omillar – G'arb bilan kuchayib borayotgan doktrinal qarama-qarshiliklar ham, rivojlanmagan jamiyat muammolari ham, islom mamlakatlarida mustamlakachilik jarayonlari va diktatura tuzumlarining shakllanishi ham yordam berdi [14, – C. 193].

“Islomizm” atamasi XX-asrning so'nggi yillarida aholisi asosan musulmon bo'lgan o'lkalarda islomni yoyish va aholini islomlashtirish yo'lidagi siyosiy harakat sifatida maydonga chiqqan bo'lsa, aslida esa, bu atama XIX-asrning oxirlarida musulmonlarni uyg'onishi tarafdorlari bo'lgan islohotchilar, ya'ni Misrda Muhammad Abdo (1849-1905), Afg'onistonda Jamoliddin al-Afg'oniy (1839-1897), Hindistonda esa, Muhammad Iqbol (1876-1938)lar tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya sifatida paydo bo'lgan. Islomizm konsepsiyasi zamonga va siyosiy maqsadlarga qarab o'zgarib borishi, uning turli davrlarda turlicha ko'rinish kasb etganligini ko'rsatadi. Chunki, bugun islomizm yangicha ko'rinishda dindan siyosiy maqsadlar yo'lida foydalanayotgan ekstremistik va terroristik guruhlar uchun juda maqbul harakat sifatida namoyon bo'lmoqda. XIX-asr so'ngida esa, islomizm butun musulmonlarni birlashtiruvchi va jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal qiluvchi yagona mafkura sifatida maydonga chiqqan edi.

Islomizm mafkura va amaliyot sifatida ma'lum bir musulmon jamiyatining o'ziga xos, ijtimoiy-madaniy, siyosiy va boshqa voqealari bilan bevosita bog'liqdir. Dunyoda islomiylik amaliyoti uch to'lqinga bo'lingan.

Birinchi to'liq panislamizm deb ataladigan shaklda namoyon bo'ladi (XIX-asr o'rtalari). ...Islomizmning ikkinchi to'liqini ikkinchi jahon urushidan keyin musulmon milliy hukumatlarining G'arb yo'nalishi bo'yicha modernizatsiya qilishga urinishi bilan bog'liq edi. ...Islomizmning uchinchi to'liqini global xarakterdagi yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy inqiroz oqibati sifatida "neoliberal globallashuv" bilan bevosita bog'liqdir [15, – С. 105-106].

Yuqoridagi mualliflarning fikrlarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, "islomizm" – islomni siyosiy lashuvini paydo qiluvchi mafkura vazifasini o'taydi. Zero, o'tgan asrda "islomizm" mafkurasidan siyosatni islomlashtirish uchun foydalanilgan bo'lsa, bugungi kunda esa, aksincha, undan islomni siyosiy lashtirish uchun foydalanilmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, "islomizm" islomiy qadriyat va diniy me'yorlardan tobora uzoqlashib boradigan va siyosiy harakat bilan bog'lanadigan konsepsiya hisoblanadi. Dunyoviy davlatlarda din va siyosat o'rtasidagi oltin o'rtalikning buzilishi dindan siyosiy maqsadlarda foydalanuvchi ekstremistik va terroristik guruhlarining paydo bo'lishiga zamin yaratib berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Морина Т.С. Идеология исламизма как фактор политики современных мусульманских стран. // Политико-философский ежегодник. 2011. - №4.
2. Григорьева Ю.З. Реставрация исламского терроризма: причины и геополитические последствия. – С.51. // Исламизм и экстремизм на Ближнем Востоке (сборник статей) – Москва: 2001.
3. Дмитрий Узланер. Конец религии? История теории секуляризации. — Москва: Изд. дом Высшей школы экономики», 2019.
4. Назиров Н.Д. Проблемы политического ислама и конфликты в государствах Центральной Азии: диссертация на соискание ученой степени кандидата политических наук. – Душанбе: 2017.
5. Малашенко А.В. Исламская альтернатива и исламский проект. – Москва: Весь мир, 2006.
6. Олейник В.И. Исламизм как религиозно-политическая идеология в современном мире. Евразийский Союз Ученых (ЕСУ) # 4 (13), 2015 | ПОЛИТИЧЕСКИЕ НАУКИ. – С. 148. // Ланда Р.Г. Международный форум востоковедов и африканистов в СПб // Восток (Oriens). 2006. - № 4.
7. Бекбосынова С.С. Исламский фактор и терроризм в современном мире. Политологический анализ. Автореферат диссертации На соискание ученой степени кандидата политических наук. – Москва: 2007.
8. Адиб Халид. Ислам после коммунизма: Религия и политика в Центральной Азии. - Москва: Новое литературное обозрение, 2010.
9. Игнатенко А.А. Эндогенный радикализм в исламе. Журнал «Профи», 2000, № 2.
10. Еркин Байдаров Исламизация государств Центральной Азии: тенденции и перспективы (философско-политологический анализ) // 21-й век. 2013. №4 (29).
11. Толковый словарь Кузнецова. Мир словарей. <http://mirslovarei.com> (Мурожаат санаси: 10.10.2023.)
12. Актаулова Б., Сапанова С. О политизации ислама в Центральной Азии: сущность, причины, последствия. Вестник КазНУ. Серия востоковедения. №1 (58). 2012.
13. Муртазин М.Ф. Ислам и исламизм: пример трансформации религиозности в политику // Контуры глобальных трансформаций: политика, экономика, право. Т. 11. № 4. 2018.
14. Хасан Джаббари Насир. Политический ислам, терроризм и безопасность на Ближнем Востоке. Вестник МГИМО-Университета. 2017. 5(56).
15. Петрухина А.А. Теория и практика исламизма. Вестник РУДН, серия Политология, 2011, № 2.

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 1

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

ТОМ 6, НОМЕР 1

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

VOLUME 6, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000